
RASMIY MUNOSABAT



Ijtimoiy tarmoqlar orqali Qo'shtepa tumanidagi Soybo'yi mahallasi hududida faoliyat olib borayotgan "Raduga" nomli bolalar bog'chasida chinor barglari xodimlar tomonidan yoqib yuborilganligi to'g'risidagi tanqidiy murojaat e'lon qilingan edi.

Ushbu murojaat yuzasidan Milliy gvardiya Qo'shtepa tuman bo'limi va tuman Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi bo'limi davlat inspektorlari tomonidan o'rganishlar olib borildi. O'rganish davomida muassasa ish yurituvchisi X.B tomonidan isitish pechidan chiqqan kullarni muassasaning tashqari qismidagi bo'sh yer maydonida to'planib qolgan xazonlar ustiga tashlaganligi natijasida xazonlar yonib ketganligi aniqlandi. Holat bo'yicha fuqaro X.B ga nisbatan O'zbekiston Respublikasi MJtKning 88-modda 3-qismiga asosan 1020000 so'm miqdorida ma'muriy jarima qo'llanilganligini ma'lum qilamiz.

Qo'shtepa tumani hokimligi axborot xizmati.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2023-12-14 13:24:36